# YANGI YIL YARMARKALARIGA MARHAMAT



Yangi yil bayrami munosabati bilan barcha hududlarda boʻlgani kabi Qoʻshtepa tumanida ham qishloq xoʻjalik va oziq-ovqat mahsulotlarining savdo yarmarkalari tashkil etildi.

Ayniqsa, Qoʻshtepa tumanining Qumtepa mahalla fuqarolar yigʻini hududida joylashgan “Dehqon bozori” oldida tashkil etilgan yarmarkada barcha turdagi mahsulotlar boʻlib, koʻplab qayta ishlash korxonalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik hamda asalarichilikka ixtisoslashgan xoʻjaliklar, dehqonlar turli xil oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi mahsulotlari bilan aholiga xizmat koʻrsatmoqdalar. Yarmarkadan joy olgan 30 dan ortiq turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bozorga nisbatan arzonligi bilan aholiga manzur boʻlmoqda.

Hurmatli Qoʻshtepaliklar sizlarni ushbu yarmarkaga taklif etamiz.

Eslatib oʻtamiz, Yangi yil bayram yarmarkasi 2022 yilning 10 yanvar kuniga qadar davom etadi.

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**
Facebook,
2021-12-13 13:51:27